
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston

QUVA TUMANI

Qadim Qubo yurtida ham eng ezgu bayram – mustaqilligimizning 26 yillik shodiyonalari har qachongidan ham ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Ahmad al-Farg'oniy nomidagi majmuada tashkil etilgan ushbu tadbirda minglab quvaliklar vakillari ishtirok etdilar.

Tuman hokimligi, tuman madaniyat ishlari bo'limi, ta'lim, tibbiyot, kasb-hunar kollejlari hamkorligida tayyorlangan "Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" shiori ostidagi bayram dasturidan xalq qo'shiqlari, laparlar, nuroniylar duosi, Ahmad al-Farg'oniy tilaklarini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari joy oldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari tomonidan ijro etilgan she'r, qo'shiq va raqslar bayramga alohida shukuh berdi. Yosh sportchilarning Osiyo, jahon musobaqalarida egallagan nufuzli o'rinlari har qancha tahsinga loyiqdir. Ular davraga chiqishganda, olqishlar sadosi borliqni tutdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdulhay Karimov ijrosidagi dilrabo qo'shiqlar, tumandagi "Anor" va "Zebo" ashula va raqs xalq dastalarining xonandalari va raqqosalari tomonidan ijro etilgan Vatan, tinchlik, do'stlik, mehr va muhabbat mavzularidagi qo'shiq va raqslariga tomoshabinlar ham jo'r bo'ldilar.

Zuhra ALIEVA.

2017-10-13 16:47:29